

YOSH AVLOD VA XORIJIY TILLARNI O‘QITISH METODLARI

Mahamadaliyeva Nafisa Abdurashid qizi

Toshent Kimyo xalqaro universiteti

“Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga chet tillarni o‘rgatishga yo‘naltirish, ya‘ni bolalarda kattalarga nisbatan turli bilimlarni o‘rganib, o‘zlashtirish ko‘nikmasi yuqoriroq ekanligi hamda bolalarga til o‘rganishini osonlashtirish uchun turli xil metodlar, o‘yinlar, tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar, chet tili, metod, til, o‘yinlar, tavsiyalar, takliflar

Abstract

In this article, various methods, games, and recommendations are given for teaching foreign languages to young children, that is, that children have a higher ability to learn and assimilate different knowledge than adults, and to make it easier for children to learn a language.

Keywords: children, foreign language, method, language, games, recommendations, suggestions

Til o‘rganish bolalarga qancha erta boshlansa, til o‘rganish ko‘nikmasi shuncha oson va tez rivojlanadi. Bolalarda til o‘rganishga bo‘lgan moyillik, ularda boshqalarga o‘xshash hissi kuchli ekanligi, katta insonlarga qaraganda bolalarning vaqti ko‘pligi buning asosiy sabablaridandir. Ya‘ni insonlarga nisbatan bolalarda ko‘p vaqt bo‘lganligi tufayli ular har qanday bilimda kattalardan oldinga o‘zib ketishi kuzatiladi. Bolalar ko‘pincha tillarni eshitish yo‘li orqali o‘rganishadi. Bolalarga chet tilining o‘rgatishning o‘ziga yarasha turlari va turli xil metodlari mavjud.

Erta ta‘lim jarayoni boshlang‘ich ta‘lim tashkilotlari o‘quvchilarga chet tilini chuqur o‘rganishiga turtki bo‘lib, kelajakda ularning nutqida ravonlik bo‘lishini ta‘minlaydi.

Xo‘sh, o‘zi chet tillarni o‘rganishning bizga qanday foydali ta‘raflari bor? Shularga to‘xtalib o‘tsak:

Ona tilingiz bo‘yicha bilimingiz oshadi

Xorijiy tilni o‘rganibgina, o‘z ona tilimizni ko‘proq qadrlay boshlaymiz. Unda bolalikdan gapirishni boshlaganimiz uchun, u qanday qurilgani haqida o‘ylamaymiz, ko‘pincha uning go‘zalligini anglamaymiz.

Konsentratsiya yaxshilanadi

Amerikalik olimlar tadqiqot o'tkazib, bir nechta tillarni biladigan kishilarga so'zlarni tushunish bo'yicha topshiriqlar berdi va ularning tomograflarini kuzatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bunday odamlar faqat bitta tilda gapiradiganlarga nisbatan, o'xshash so'zlarni yaxshi aniqlay oladi. Ushbu qobiliyat turli chalg'ituvchi omillarni bloklab, bitta vazifaga diqqatni qaratishga yordam beradi.

Matematik qobiliyatlar yaxshilanadi

2007-yilda Chet tillarni o'qitish bo'yicha Amerika kengashi tomonidan o'tkazilgan tadqiqot doirasida xorijiy tillarni o'rganayotgan bolalar maktab dasturida matematikaga ko'proq soat ajratilgan, ammo chet tillarni umuman o'qimaydigan o'quvchilarga nisbatan, matematika bo'yicha yaxshiroq natijalarni ko'rsatgani aniqlandi. Hayratlanarli tomoni yo'q — boshqa til asoslarini o'rganish mantiqiy fikrlashni ishga tushiradi.

Siz tezroq o'rganasiz

Chet tilini o'rganishda yangi axborotni eslab qolish qobiliyati yaxshilanadi, bu o'qish vaqtini kamaytiradi. Buning ustiga, ko'p til biladiganlar bir vaqtning o'zida ko'p vazifalarni bajarishga moyil bo'ladi.

Siz kirishimliroq bo'lasiz

Xorijiy tilni o'rganish mohiyati — boshqa odamlar bilan muloqotdan iborat. Suhbatlashish malakalarini takomillashtirish uchun esa, yaxshisi, shu tilda so'zlashuvchi yoki bu tilni allaqachon o'rganib bo'lgan kishilar bilan shug'ullangan ma'qul.

Pedagogik va psixologik olim K. D. Ushinskiy ning ta'limotiga ko'ra, xorijiy tilda so'zlashishni yosh bola kattalarga o'xshab yillar davomida emas, balki bir necha oylarda o'rganib olarkan. Bu olimning fikricha, xorijiy tillarni o'rganish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi.

1. Til o'rganayotgan xalqning ijodi bilan tanishish.
2. Mantiqiy fikrlash, doirasini kengaytirish, chunki til o'rganish insonning miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni har tamonlama rivojlantiradi.
3. Shu xalqning madaniyati bilan yaqinroq tanishish va ular bilan oson muloqotga kirasha oladi.

Ya'ni til o'rgansak biz faqatgina ma'lum bir tini emas, balki u xalq bilan yaqindan tanishar ekanmiz. Xalqning milliy urf-odatlarini, insonlari, ijodi va eng asosiysi dunyoqarashimiz kengayib, fikrlashimiz o'sar ekan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, til o'rganishning o'ziga xos metodlari bor va ular bilan biz til o'rganishimiz yanada oson bo'ladi:

1. O'quvchilarni so'z yod olishda, siz doskaga yangi so'zlarni turli xil rangdagi qog'ozlarga yozib doskaga ilasiz. Unutmang ranglar bolalarning psixikasida juda muhim ro'l o'ynaydi. Shunda o'quvchilar rangli qog'ozlarga qarab yangi so'zlarni

eslab qolishadi. Keyingi safar so‘raganigizda bolalar usha so‘zlarni eslab xattoki, qaysi randa yozilganini ham eslab aytib bera oladi.

2. Rasmlar- ya’ni siz o‘quvchilarga o‘rgatmoqchi bo‘lgan yangi so‘zlarni su‘ratini ham ko‘rsatib o‘rgatsangiz bolalar yod olishi osonlashadi.

3. 3, 4, 5, 6, 7 metodi- bunda siz doskaga uchta, to‘rta, beshta, oltita, va yettita, kataklar chizasiz, va o‘quvchilardan o‘tgan mavzudagi o‘rgangan so‘zlarni shu kataklarga moslab qo‘yib chiqishini so‘raysiz. Shunda bolalarning diqqati jamlanib shu so‘zlarni topishga kirishishadi.

4. Mozayka- siz o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, yangi o‘rganadigan so‘zlarni qaychida qirqib, konvertlarga solib tarqatasiz, Ular esa maydalangan qogo‘zlardan kerakli so‘zlarni joylashtirishadi. Bunda o‘quvchilar bilan o‘zaro guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmasi ortadi, va tilo‘rganishi yanada qulay bo‘ladi.

Ushbu metodlarni qo‘llab ko‘rin albatta, o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq, hohish va qobiliyat ortadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga tilni majburiyat sifatida emas, balki, qiziqarli metodlar ,o‘yinlar va zamonaviy texnologiyalar orqali ta’lim berilsa, ular kelajakda shu tilni o‘zlashtirib, turli cho‘qqilar, marralarni zabt etishlari mumkin. Shuningdek, Vatanimiz rivojlanishiga o‘z hissalarimizni qo‘shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-yangi-o-rganishga-kirishgan-yoshlarning-yo-l-qo-yadigan-ba-zi-xatolari-muammoli-vaziyatlari-va-ularning-tahlili>
2. <https://rank.uz/uz/news/izucenie-inostrannyx-yazykov-kakie-metody-rabotayut-bystro-i-xoroso>
3. <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>